




ISTE'MOL BOZORI

2018 yil yanvar-aprel

Bugungi kunda, aholi ijtimoiy himoyasini muttasil yaxshilash bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida respublikada aholi sonining o'sishi, daromadlarining ko'payishi kuzatilmogda, aholining ish haqi va pensiyalarning oshirilishi natijasida esa oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlariga bo'lган talab o'zgarmoqda va chakana savdo aylanmasining hajmi oshmoqda. Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi shu yilning 4 oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 foizga oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 12,2 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin, va alkogolli ichimliklarga bo'lган talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,8 foizni tashkil etadi..

2018 yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, Toshkent viloyat chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 99,8 foizni tashkil qilib,

1237,0 ming. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-mart oylarida 774,4 ming. so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Olmaliq shahari (2,3 mln. so'm), Bekabod shahar (1,8 mln. so'm), Yangiyo'l shahar (2,6 mln. so'm), Zangiota tuman (1,9 mln. so'm), Oqqurg'on tuman (1,6 mln. so'm), Qibray tuman (1,3 mln. so'm) kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 94,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 1,8 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiylajiga ovqatlanish korxonalarining ulushi 3,1 foizni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming. so'm | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|-------------------------------------|------------|---|
| Viloyat bo'yicha shaharlari: | | |
| Nurafshon | 1218,1 | 99,6 |
| Olmaliq | 2066,6 | 102,3 |
| Angren | 808,7 | 100,1 |
| Bekabod | 1598,1 | 105,1 |
| Changaron | 1493,9 | 99,6 |
| Chirchiq | 976,4 | 101,3 |
| Yangiyo'l | 2572,7 | 99,8 |
| tumanlar: | | |
| Oqxo'rgon | 1124 | 99,9 |
| Oxangaron | 424,6 | 100,1 |
| Bekabod | 451,8 | 100,6 |
| Bo'stonliq | 776,2 | 99,3 |
| Bo'ka | 795,3 | 100,6 |
| Zangiota | 1665,8 | 100,2 |
| Qibray | 934,1 | 99,8 |
| Quyichirchiq | 453,4 | 100 |
| Parkent | 737,5 | 99,4 |
| Piskent | 642,8 | 99,2 |
| O'rtaqirchiq | 343,4 | 102,5 |
| Chinoz | 840,3 | 107,2 |
| Yuqorichirchiq | 655,6 | 98,6 |
| Yangiyo'l | 628,4 | 99,2 |
| Toshkent | 798,5 | 109,6 |

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Zangiota tumani (14,0 foiz), Olmaliq shahri (11,8 foiz), Yangiyo'l shahar (6,9 foiz), tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda




O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga o'sdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 88,9 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 259,5 mld. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,7 foizni tashkil etdi.



Ishbilarmolik muhuti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: O.Xudoynazarov
(0371) 230-86-59